

## O'ZBEKISTON VA XITOY: HAMKORLIK ALOQALARINING YANGI BOSQICHI (2017 – 2023-yillar)

Mo'minov Husanboy Madaminjanovich,

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasи dotsenti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.002>

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li,  
Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rta sidagi iqtisodiy va diplomatik aloqalarda 2017-2023-yillardagi rasmiy va davlat safarlarining ahamiyati va bu safarlarining natijasida O'zbekiston va Xitoy o'rta sidagi aloqalarning yangi bosqichiga ko'tarilganligini, ilmiy asosda tahlil qilinadi.

*Kalit so'zlar:* Sammit, investitsiya, xalqaro aeroport, forum, provinsiya, viloyat, orden, kuzatuvchi, a'zo.

## UZBEKISTAN AND CHINA: COOPERATIVE RELATIONS NEW PHASE (2017-2023)

Mominov Husanboy Madaminjanovich,

Associate professor of the department of history of uzbekistan, Andijan state university, faculty of history

Kadirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li,  
Andijan state university faculty of history 3rd student

*Abstract:* In this article, the importance of official and state visits in 2017-2023 in the economic and diplomatic relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China and the fact that the relations between Uzbekistan and China have risen to a new level as a result of these trips are analyzed on a scientific basis.

*Key words:* Summit, investment, international airport, forum, province, region, order, observer, member.

## УЗБЕКИСТАН И КИТАЙ: ОТНОШЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА НОВЫЙ ЭТАП (2017-2023 гг.)

Моминов Хусанбой Мадаминянович,

Доцент кафедры истории Узбекистана Андикжанскаого государственного университета,  
исторический факультет

Кадиржонов Омаджон Таваккалжон угли,  
Андижанский Государственный Университет, 3-й студент исторического факультета

*Аннотация:* В данной статье рассматривается значение официальных и государственных визитов в 2017-2023 годах в экономических и дипломатических отношениях между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой и то, что отношения между Узбекистаном и Китаем поднялись на новый уровень как Результаты этих поездок анализируются на научной основе.

*Ключевые слова:* Саммит, инвестиции, международный аэропорт, форум, провинция, регион, приказ, наблюдатель, участник.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi uzoq tarix davomida Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni olib brogan. Miloddan avvalgi 128-yilda Xan hukmdori U-di tomonidan yuborilgan Chjan Syan (? - mil. avv. taxm. 103)ning Qashg'ar orqali Qadimgi Farg'ona (aslida Dayyuan, rus adabiyotida Davan bo'lib ketgan) davlatiga kelishini O'zbekiston va Xitoy o'rta sidagi diplomatik aloqaning boshlanishi deb hisoblash mumkin.

Aytish lozimki, Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi bilan O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'ydi. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida Prezidentimizning g'ayrat-shijoati va bунyodkorlikka intilish salohiyati bilan O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida islohotlar amalga oshirildi. Natijada O'zbekistonning ham ichki ham tashqi siyosatida katta o'zgarishlar yuz berdi, qisqa muddat ichida mamlakatimizning jahon miqyosida roli va ishtiroki yanada oshib muhim yutuqlari qo'lga kiritildi. Dastlabki besh yillik davr ichida AQSH, Yevropa ittifoqi mamlakatlari, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy bilan hamkorlik faol kengaytirildi. Bu aloqalarda Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlik alohida o'ringa egadir. Ayniqsa ushbu aloqalar 2016-yil Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajarishni boshlagandan so'ng yangi darajaga ko'tarildi. Xitoy bilan aloqalarning tarixi va ahamiyati haqida Prezident Sh.M. Mirziyoyev "O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalari qadimiy tarixga ega bo'lib, uning ildizlari olis o'tmishda Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan Buyuk Ipak yo'li zamonlariga borib tutashadi. Mamlakatlarimiz xalqlari asrlar davomida savdo, ilmu fan va gumanitar soxalari samarali xamkorlik qilib, madaniyat, urf-odat va an'analarimiz doimo bir-birini boyitib kelgani haqidasi tarixiy manbalarda ko'plab misollar mavjud" degan edi[1].

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy obyektivlik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

Natijalar. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev XXR raisi Si Szinping taklifiga binoan 2017-yil 11-may kuni davlat tashrifi bilan Pekin shahriga jo'nab ketdi. Prezidentga safarda rafiqasi Ziroatxon Mirziyoyeva hamrohlik qildi.

«Shoudu» xalqaro aeroportida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Prezidentni XXR rasmiy shaxslari kutib oldi [2].

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 12-may kuni Butunxitoy xalq vakillari kengashi binosida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

2017-yil 12-mayda o'tkazilgan Xitoy davlat rahbari Raisi Si Szinpin bilan davlatimiz rahbarini o'rtasida muzokaralarda o'zaro va ko'p tomonlama munosabatlarga oid dolzarb masalalar, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish xususida atroficha fikr almashildi.

Ikki davlat rahbarlarining kengaytirilgan tarkibdagi uchrashuvidan so'ng muzokaralarning yakuni sifatida Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi Qo'shma bayonetni imzoladilar. Davlatimiz rahbarining Xitoya davlat tashrifi davomida 100 dan ortiq hujjat imzolandi. Bu ko'p yillik savdo-iqtisodiy munosabatlar, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida barcha sohalardagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. 2017-yil 14-15-may oyida «Bir makon, bir yo'l» xalqaro forumda ishtirok etish asosida erishilgan qarorlar va kelishuvlarni amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.[3]

Ushbu sammit Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shaxrida bo'lib o'tdi. Sammitda ishtirok etgan Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Bir makon bir yo'l" konsepsiysi haqida ushbu sammitdagi so'zlagan nutqida quyidagicha baho bergen: "Bizningcha, Bir makon bir yo'l" konsepsiysi mamlakatlarimizning o'zaro keng hamkorligining yanada samarali mexanizmlariga asoslangan, yangi xalqarohamkorlik modelidir.

Xitoy ana shu jarayonlarning harakatga keltiruvchi kuchi ekanini ta'kidlash lozim.

Xitoy davlati rahbari Si Szinpin forumning ochilish marosimidagi dasturiy ma'rzasida mamlakatlarimiz hamkorligini kengaytirish uchun yirik infratuzilma, investitsiya va savdo loyihibalarini amalga oshirishga qaratilgan faol muloqot va keng ko'lamli sheriklik muhimligini ta'kidladi. Bu konsepsiyanı amalga oshirishda bepayon hududi orqali muhim xalqaro va mintaqaviy transit-transport koridorlari o'tgan Rossiya Federatsiyasi ham muhim rol o'ynashini ta'kidlash zarur.

Hurmatli forum qatnashchilari !

Ikki yarim ming yil muqaddam buyuk Xitoy faylasufi va mutafakkiri Lao Szi "Dunyoda hamma narsa o'sadi, gullaydi va o'z ildizlariga qaytadi", deb aytgan ekan. Bu dialektik haqiqat naqadar to'g'ri ekanini vaqtning o'zi ko'rsatib turibdi.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning "Bir makon, bir yo'l" konsepsiyasining ajralmas qismi bo'lgan "Ipak yo'li iqtisodiy yo'nalishi"ni tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi, bizningcha, nafaqat tarixiy ruh bilan boyitilgan, balki uzoq muddatli istiqbolga mo'ljalangan keng qamrovli tashabbusni ifoda etadi." [4]

Ushbu nutq davomida aytilgan so'zlarning naqadar to'g'ri ekanligini kelgusi 5 yillik ko'rsatib berdi

hamda “Bir makon, bir yo‘l” hamda Shanxay Hamkorlik Forumi doirasida O‘zbek-Xitoy hamkorligi darajasi ortib bordi va “Yangi Buyuk Ipak yo‘li” loyihasi nazariyadan hayotga tatbiq etila boshlandi.

Ushbu loyihalarning amalga oshishi O‘zbekiston xalqi uchun manfaatli ekanini yaxshi anglagan Prezident SH. Mirziyoyev Xitoy bilan faol diplomatik aloqlarni olib bormoqda.

Bunga yana bir misol 18-may 2017-yil Butunxitoy xalq vakillari kengashi doimiy qo‘mitasi raisining o‘rnbosari, bosh kotibi Van Chen rahbarligidagi Butunxitoy xalq vakillari kengashi delegatsiyasini Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilinishi bo‘ladi.

Qabul davomida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi har tomonlama strategic sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashda parlamentlararo hamkorlik ahamiyati ta’kidlandi. Samarqand va Sian, Buxoro va Loyan shaharlari o‘rtasidagi sayyoohlар almashinuviga alohida e’tibor berdi.

Van Chen 2017-2021-yillar uchun mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholaydi.[5]

XXR raisi Si Zinpin 2022-yil 15-16-sentyabr kunlari Samarqandda bo‘lgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiningning 22-sammitida qatnashish uchun O‘zbekistonga 14-sentyabrda keldi. Uni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Bosh vazir Abdulla Aripov va Tahqi ishlar vaziri Vladimir Norovlar kutib oldi.[6]

Oliy darajadagi uchrashu davomida 15 ta hujjat imzolandi. Bularga quyidagilar misol bo‘ladi: “Yashil” taraqqiyot sohasidagi investitsiyaviy hamkorlik, raqamli iqtisodiyot sohasidagi investitsiyaviy hamkorlikni mustahkamlash, foydali qazilmalarni o‘zlashtirish sohasidagi hamkorlik, korruptsyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida hamkorlik, qurilish sohasida hamkorlik, 2022-2025-yillarda madaniy almashinuv dasturi, milliy axborot agentliklari o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida, Samarqand viloyati va Shandun provinsiyasi o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim, Toshkent viloyati va Chunsin megapolisi o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim, Buxoro viloyati va Yunnan provinsiyasi o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim, Buxoro va Kunmin shaharlari o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim. Shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikka doir umumiy qiymati 15 milliard dollarlik kelishuvlarga erishildi va bitimlar imzolandi. Shundan so‘ng Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinga O‘zbekiston Respublikasining oliy davlat mukofoti – “Oliy Darajali Do‘stlik” ordenini tantanali ravishda topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.[7]

Yurtimiz uchun ushbu sammitning yana bir ahamiyatli jihat shunda bo‘ldiki Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yildan qayta jonlangan kelishuvlar natijasida 2022-yil 14-sentyabrda O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘lining Qirg‘izistondan o‘tuvchi qismi bo‘yicha yakuniy shartnomasi imzolandi. Ushbu temir yo‘l O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalarining hajmini kelajakda keskin oshishiga va O‘zbekistonning mintqa va Xalqaro miqyosdagi tranzitorlik pozitsiyasining mustahkamlanishiga yordam beradi. [8]

Ushbu davrdagi xalqaro vaziyat Xitoyni yangi savdo yo‘llarini izlashga majbur qilmoqda. An‘anaviy okean yo‘llari Xitoy talabiga javob beradigan darajada siyosiy va iqtisodiy jihatdan xavsiz bo‘lmay qoldi. Shu sababli Xitoy davlati kelajakda o‘z savdo yo‘llarini O‘rta Osiyoga

Ushbu sammitda XXRdan tashqari Pokiston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Hindiston Respublikasi a‘zo davlat sifatida qatnashdi. Kuzatuvchi davlatlar sifatida: Belarus Respublikasi, Mongoliya, va Eron islam Respublikasi qatnashadi. Faxriy Mehmon sifatida Turkiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi rahbarlari, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari qatnashdi. [9]

Xususan, ushbu uchrashuvlardan so‘ng Xitoylik investorlarning investitsiyalar kiritish hajmi ham ortib bordi. Misol uchun Xitoyning “Anhul ConchCement” kompaniyasi tomonidan 2022-yil Kitob tumanida 150 million dollarlik investitsiya kiritilib, sement zavodi qurib foydalanishga topshirildi. Maydoni 62 hektarni egallagan ushbu inshoot Makrid kengliklarini egallagan. Korxona kuniga 3,2 tonna, yiliga esa 1,2 million tonna yuqori sifatlari sement ishlab chiqarish quvvatiga ega. Korxona shu yilning o‘zida 400 nafar yoshlarni ish bilan ta’minlangan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 30 foizdan ziyodrog‘i Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston va Xitoya eksport qilinadi. Yana bir investitsion loyiha Qashqadaryoda amalga oshirildi. Ushbu korxona MDH mamlakatlari ichidagi eng yirik loyihalardan biri

hisoblanadi. "Uzbekistan GTL" sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqaruvchi korxonasıdir. Ushbu korxona mamlakatimizning dizel va kerosinga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yordam beradi. "Uzbekistan GTL" o'rtacha yiliga 2 trillion so'm miqdorida soliq to'laydi. Bu esa loyihaning O'zbekiston Respublikasi uchun qanchalik foydali ekanini ko'rsatadi. [10]

2022-yilda O'zbekistonning eng yirik import hamkorı Xitoydan 6.4 milliard dollarlik maxsulotlarni import qildi. Taqqoslash uchun undan keyingi o'rindagi Rossiyadan 6.2 milliard, Qozog'istondan 3.2 milliard, Janubiy Koreyadan 2.3 milliard, Turkiyadan 1.7 Germaniyadan 1.1 milliard, Turkmanistondan 732 million, Hindistondan 655 million, Braziliyadan 553 million, Belarussiyadan 410 million dollarlik mahsulot import qilgan.[11]

Xitoy davlati O'zbekistondan 2.28 milliard dollarlik mahsulot import qilgan.[12]

No	Tovar turi	Tovar qiymati
1.	Mineral yoqilg'ilar, moylar, distillash mahsulotlari.	1.07 milliard dollar
2.	Mis	423.15 million dollar
3.	Paxta	261.51 million dollar
4.	Sabzavot, ildiz va ildizmevali	120.90 million dollar
5.	Maxsulotlar	112.76 million dollar
6.	Marvaridlar, qimmatbaho toshlar, metallar, tangalar	69.90 million dollar
7.	Noorganik kimyoviy moddalar, qimmatbaho metal birikmali, izotoplari	49.37 million dollar
8.	Plastik	26.7 million dollar
9.	O'g'itlar	25.42 million dollar
10.	Organik kimyoviy moddalar	24.63 million dollar
11.	Mevalar, yong'oqlar, tsitrus mevalari qobig'i, qovunlar	18.97 million dollar
12.	Xom teri va terilar (mo'ynali kiyimlardan tashqari) va teri	16.33 million dollar
13.	Ipak	13.41 million dollar
14.	Yog'och xamiri, tolali tsellyulozali material, chiqindilar	11.66 million dollar
15.	Hayvonlardan olingan mahsulotlar	6.11 million
16.	Aluminiy	5.96 million dollar
17.	Ko'nchilik, bo'yash ekstraktlari, taninlar, hosilalar, pigmentlar.	4.68 million dollar
18.	Lak, saqich, qatronlar	3.68 million dollar
19.	Albuminoidlar, o'zgartirilgan kraxmallar, elimlar, fermentlar	1.90 million dollar
20.	Sabzavotli to'quv materiallari, sabzavot mahsulotlari.	1.46 million dollar
21.	Oziq-ovqat sanoatining qoldiqlari, chiqindilar, chorva yemlari	1.40 million dollar
22.	Temir yo'l, tramvay yo'lidan tashqari transport vositalari	1.04 million dollar
23.	Jun, hayvonlarning juni, ot juni va mato	999.65 ming dollar

Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston. 2018. –B 403.

KUN.UZ. URL: <https://kun.uz/uz/news/2017/05/15/savkat-mirzievning-hitojga-davlat-tasrifi-kiskaca-tafsilotlar-varakamlar>

O'zbekiston Respublikasining Ukrainadagi elchixonasi. URL: <https://uzbekistan.org.ua/uz/siyosat/4752-o-zaroishonch-va-mustahkam-do-stlikka-asoslangan-hamkorlikning-yuksak-natijalari.html>

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston. 2019. –B 407

O'zbekiston adabiyoti va san'ati (gazetasi). – Toshkent, 2017-yil 19-may. 21-son.

CGTN. URL: <https://news.cgtn.com/news/2022-09-14/President-Xi-arrives-in-Uzbekistan-for-state-visit-1dkojfPopq0/index.html>

O'zbekiston Milliy axborot agentligi. URL: [https://uza.uz/oz/posts/buyuk-ipak-yolida-tutashgan-dostlik-rishtalarimustahkamlandi\\_408007](https://uza.uz/oz/posts/buyuk-ipak-yolida-tutashgan-dostlik-rishtalarimustahkamlandi_408007)

Qodirjonov O. Railway project between Uzbekistan and China // Journal of Modern Educational Achievements-India, Yavatmal. Volume 7, 2023. –P.7.

O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2022-yil 16-sentyabr. 32-son.

O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2022-yil 22-iyul. 25-son.

Silk Road Briefing. URL: <https://www.silkroadbriefing.com/news/2023/01/24/china-the-primary-destination-for-uzbekistan-2022-exports/>

Trading Economics. URL: <https://tradingeconomics.com/china/imports/uzbekistan#:~:text=China%20Imports%20from%20Uzbekistan%20was,updated%20on%20October%20of%202023>.

Shamsutdinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi: O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan, 2020.

Мўминов Х. Рақамли тарих [Матн]: дарслик / Х. Мўминов. - Ташкент: «Nurafshon business», 2022.